

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABDULLOYEVA KAMOLA MIRXON QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNIDA MUALLIF DISKURSIV SHAXSI
VOQELANISHINING KOGNITIV ASPEKTI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi

Ingliz va o‘zbek badiiy matnida muallif diskursiv shaxsi voqelanishining kognitiv
aspekti..... 3

Abdulloyeva Kamola Mirkhon kizi

Cognitive aspect of verbalisation author’s discursive personality in English and
Uzbek literary text 23

Абдуллоева Камола Мирхон кизи

Когнитивный аспект репрезентации дискурсивной личности автора в
английском и узбекском художественном тексте..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 50

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABDULLOYEVA KAMOLA MIRXON QIZI

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY MATNIDA MUALLIF DISKURSIV SHAXSI
VOQELANISHINING KOGNITIV ASPEKTI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2512 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Normurodova Nozliya Zarilovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djusupov Nursulton Maxanbet o'g'li
filologiya fanlari doktori, dotsent

Lutfullayeva Durdona Esonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "19" 04 soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (291 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" 04 kuni tarqatildi
(2025-yil "4" 04 da 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.S. Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, akademik

Q.U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilni antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etish globallashuv natijasi hisoblanadi. Diskursiv va lisoniy shaxsni o'rganish turli uslubiy vositalar, ayniqsa, badiiy tasvir asosida so'zlovchining motivlari va niyatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Hozirgi tilshunoslikda diskurs hodisasi tadqiqi an'anaviy lingvistik tahlil usullaridan farqli ravishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Tilga antropotsentrik yondashuv asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar materiallarining yanada boyishi, erishilgan natijalar hamda kelib chiqadigan xulosalarning ishonchli bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. Bu esa, muallif va qahramon diskursiv shaxsini namoyon etuvchi lingvistik, uslubiy, pragmatik hamda kognitiv vositalarni hozirgi tilshunoslik doirasida chuqur tahlil qilish zaruratini kun tartibiga qo'ydi.

Dunyo tilshunosligida diskursiv shaxs ko'p bosqichli hodisa sifatida talqin etilib, unga ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida doimiy ravishda o'zgarib turadigan moslashuvchan tuzilma sifatida qaraladi. Uning tavsifi murakkab bo'lib, kommunikativ xulq-atvor, kommunikativ vakolat va nutq tomonidan belgilangan modellarni qamrab oladi. Kommunikativ jarayonda kognitiv omil va diskursiv kompetensiyaga asoslangan motivatsion parametrlar namoyon bo'ladi. Diskursiv shaxs muayyan lingvistik vositalar, muloqot taktikasi va strategiyasini, muloqot amalga oshirilayotgan mafkuraga eng mos keladigan nutq xatti-harakatlari modellarini tanlaydi. Diskursiv shaxsning o'ziga xosligi tuzilish hamda lingvistik jihatdan ko'p bosqichni ichiga oluvchi murakkab qurilma ekanligi bilan izohlanib, o'zida kognitiv, kommunikativ-pragmatik, semantik-uslubiy, madaniy va psixologik jihatlarni aks ettirishi mumkin. Shuningdek, diskursiv shaxs badiiy matnlarda intensionallik va kontekstual aniqlikni ham ifodalashi bilan ahamiyatli sanaladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida hozirgi tilshunoslik tarmoqlarida inson omili bilan bog'liq antropotsentrik paradigmaga oid tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi tilshunoslik rivojlanishining yangi yo'nalishlari doirasida diskursiv shaxsning shakllanishi hamda muayyan vazifani bajarishida muhim sanaluvchi mexanizmlarni tushunishdagi nazariy ahamiyati va zarurati bilan xarakterlanadi. "Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko'plab yangi tushuncha, so'z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi"¹. Diskursiv shaxsning kognitiv namoyon bo'lishini tadqiq etishning ahamiyati hozirgi tilshunoslikda badiiy matnda inson omilining aks etishi hamda uning kognitiv va diskursiv jihatlari tahlili bilan xarakterlanadi. Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskursiv shaxsning lingvistik jihatdan aks etishini tadqiq qilish til hamda madaniy jihatdan o'xshashliklar va farqlar haqidagi bilimlarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, tilshunoslikda amalga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2019-yil, 22-oktabr.

oshirilayotgan qiyosiy-tipologik tadqiqotlar o'zbek tilining o'ziga xos jihatlarini ochib berish, milliy o'zlikni saqlab qolish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturli tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi tilshunoslikda badiiy matn va diskurs masalasini tadqiq etish, jumladan, diskursiv shaxsning matnda voqelanishiga xos xususiyatlarni o'rganish xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari doirasida faol amalga oshirilmoqda. Jumladan, tadqiqot mavzusiga doir shaxsni qayta voqelantirish va til vositasida anglash imkoniyati xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar bir qator chet ellik tilshunoslar: L.V.Shcherba, B.A.Larin, A.A.Potebnya, G.O.Vinokur singari olimlarning asarlarida bayon etilgan². Lingvistik shaxsning tuzilishi Y.N.Karaulov asarlarida rus tili materiallari asosida batafsil tavsiflangan³. N.Normurodovanning doktorlik dissertatsiyasi ushbu tadqiqot uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi⁴.

Xorij tilshunosligida lisoniy shaxs muammosi, asosan, psixolingvistika nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan holatni G.Lakof, Z.Harris, V.Deyk, E.Erikson tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Ushbu olimlarning ishlarida lisoniy shaxsga xos xususiyatlar hamda ularning tilda namoyon bo'lishi, muloqot jarayonida ruhiy holatni aks ettirishda qo'llaniladigan lingvistik vositalar, shuningdek, lisoniy shaxs tasnifiga oid qarashlar bayon etilgan. O'tgan asrda inson hamda til munosabatlarini tadqiq etishning yangi bosqichga chiqishi natijasida M.A.Shelyakin tilning mazmun jihatdan qurilishi subyektivligi va fikrlash jarayonlari natijasida inson muhim ahamiyatga ega omil sifatida xizmat qilishi to'g'risidagi qarashni yoqlab chiqdi.

²Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1957. – 188 с.; Ларин Б.А. Лекции по истории русского литературного языка (X – середина XVIII в.) – М. Высшая школа, 1975. – 327 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 с.; Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий: Варианты речевого поведения. 2-е изд., стереотипное. – М.: Ленанд, 2005. – 171 с.

³Карaulов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1989. – 261 с.

⁴Нормуродова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Дисс. д-ра филол. наук. – Ташкент, 2020. – 237 с.

Tilning antropotsentrik paradigma nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi hamda lisoniy/diskursiv shaxs tahlili xususida rus tilshunosligida N.F.Alefirenko, I.V.Arnold, N.N.Boldirev, I.R.Galperin, A.V.Karasik, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, V.N.Teliya⁵ kabi olimlar fikr yuritgan. Xususan, N.D.Arutyunova tilning antropotsentrik tabiati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tarkan, inson til vositasida ichki tuyg‘ulari, hissiyotlari, bilimi, qarashlari hamda boshqa shaxslarga nisbatan munosabatini aks ettirishini ta’kidlagan⁶. Boshqa bir olim tomonidan tilning antropotsentrik tadqiqi jarayonida asosiy e’tibor qaratilishi muhim bo‘lgan omil xususida fikr yuritilib, «til tizimi asosini tashkil etuvchi mexanizm emas, balki uning qo‘llanilishi» muhim ahamiyat kasb etishi e’tirof etilgan⁷.

O‘zbek tilshunosligida tilning antropotsentrik tadqiqi hamda lisoniy/diskursiv shaxs muammosi D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, N.M.Mahmudov, X.A.Dadaboyev, Z.Xolmonova, S.X.Muhammedova, A.E.Mamatov, D.E.Lutfullayeva, N.Z.Normurodova, D.S.Xudoyberganova, M.R.Galiyeva, N.M.Djusupov, M.E.Umurzoqova⁸ tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Biroq lingvistik/diskursiv shaxs muammosi bo‘yicha mavjud lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, garchi ushbu sohada katta hajmdagi tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, muallif diskursiv shaxsini o‘zbek va ingliz tillari materiallari doirasida lingvistik jihatdan tahlil etish bilan bog‘liq bir qator muammolar hali ham yechimini kutmoqda. Badiiy matnda muallif va qahramon diskursiv shaxsining namoyon bo‘lishini o‘rganishga yo‘naltirilgan o‘zbek tilidagi tadqiqotlar hozircha yetarli emas.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida amalga oshirildi.

⁵ Алефиренко Н.Ф., Корина Н.Б. Проблемы когнитивной лингвистики. – Нитра: UKF, 2011. – 216 с.; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Стилистика декодирования. – Л.: Просвещение: Ленингр. отд-ние, 1981. – 298 с.; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: (Курс лекций по английской филологии): Учеб. пос. для студентов вузов. – Тамбов: ТГУ, 2002. – 123 с.; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования – М.: Наука, 1981. – 139 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004. – 390 с.; Кубрякова Е.С. О термине «дискурс» и стоящей за ним структуре знания // Язык. Личность. Текст: Сборник к 70-летию Т.М. Николаевой // Ин-т славяноведения РАН; Отв. ред. проф. В.Н. Топоров. – М.: Языки славянских культур, 2005. – С. 23–33; Маслова В.А. Современные направления в лингвистике. – М.: Академия, 2008. – 264 с.; Телия В.Н. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. – М.: Русский язык, 1988. – 267 с.

⁶ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – С. 3.

⁷ Пименова М.В. Концептуальные исследования. – М.: Флинта, 2011. – С.10.

⁸ Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: Turon Istiqbol, 2016. – 324 p.; Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – 176 b.; Dadaboyev H.A., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. – 224 b.; Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.; Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012. B. 212–220; Lutfullayeva D., Xudoyberganova D. Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2017. 6-son. – B. 35–41; Normurodova N.Z. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Дисс. д-ра филол. наук. – Ташкент, 2020. – 237 с.; Худойбергана Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии выдвижения в художественном тексте. – Ташкент, 2019. – 464 с.; Umurzakova M. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek Hamdam’s stories) – Asian Journal of Multidimensional Research. ISSN: 2278-4853. Vol 10, Issue 5, May, 2021. – P. 591–595.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matn materiali asosida muallif diskursiv shaxsi voqelanishiga doir kognitiv aspektning o'ziga xosligini belgilovchi turli mental jarayonlar, bilim strukturalari hamda lisoniy majmuini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hozirgi ingliz va o'zbek tilshunoslikning metodologik tamoyillarini o'rganishga oid mavjud yondashuvlarni tahlil qilish;

diskursiv shaxs tushunchasi va uning mohiyati, shuningdek, muallif diskursiv shaxsining asosiy belgilarini tadqiq etish hamda badiiy matnda muallif individual olam manzarasi aks etishini chog'ishtirma aspektda tavsiflash;

ingliz va o'zbek badiiy matnlarida monolog va dialog muallif diskursiv shaxsini aks ettiruvchi til birligi sifatidagi ahamiyatini ochib berish;

muallif konseptual olam manzarasi namoyon bo'lishida sarlavha va epigrafning o'rnini asoslash hamda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni kognitiv-madaniy xususiyatlarini chog'ishtirma o'rganish, chog'ishtirilayotgan tillarda mos keluvchi va farqli jihatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek badiiy matnlarida muallif diskursiv shaxsi namoyon bo'luvchi til birliklari (sarlavha va epigraf, portret, badiiy dialog va monolog, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap) tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek badiiy matnlarida muallif diskursiv shaxsi namoyon etuvchi til birliklari (sarlavha va epigraf, portret, badiiy dialog va monolog, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap) ning semantik-stilistik, lingvopragmatik, lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, uslubiy tahlil, kontekstual, kommunikativ-pragmatik, freym, konseptual, intertekstual, chog'ishtirma va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi o'zbek va ingliz tilshunosligidagi antropotsentrik paradigma tamoyillariga asoslanib, lingvopersonologiyaning mustaqil fan ekanligi nazariy asoslari orqali dalillangan;

muallif diskursiv shaxsiga xos jihatlar uning kognitiv, madaniy, kommunikativ-pragmatik va semantik-uslubiy xususiyatlari hisobga olingan holda ko'p qirrali kognitiv-madaniy hosila sifatidagi majmuaviy mexanizm ekanligi chog'ishtirma aspektda aniqlangan;

ingliz va o'zbek badiiy matnlarida muallif diskursiv shaxsining asosiy ko'p vazifali lingvistik belgilarini namoyon etuvchi sarlavhalar va epigraflar; badiiy portret; dialog va monolog; o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar asosida ochib berilgan;

muallif diskursiv shaxsi voqelanadigan til birliklarining kognitiv-madaniy xususiyatlari, universal va unikal jihatlarini qiyoslash orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

diskursiv shaxsni tahlil qilish zarurati kognitiv-diskursiv paradigmaning metodologik tamoyillariga asoslangan;

ingliz va o'zbek badiiy matnlaridagi sarlavha va epigraflar, maksimlar, tasviriy kontekstlar, badiiy dialog, badiiy tasvir vositalari va noxususiy to'g'ri nutq kabi matn bo'laklari va birliklarida namoyon bo'ladigan muallif diskursiv shaxsini ko'rsatuvchi belgilar aniqlandi. Bu jihat nutq va nutq tahlili nazariyasi, shuningdek, "muallif-qahramon" diskursiv shaxsi tasnifiy-konseptual apparatining kengayishiga yordam berishi isbotlangan;

muallif va qahramon diskursiv shaxsini namoyon etuvchi belgilarni tahlil qilishning universal usuli ishlab chiqilgan bo'lib, u turli tillardagi materiallarga asoslangan har xil turdagi diskursiv shaxslarga nisbatan qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi hozirgi tilshunoslikning fundamental ilmiy-nazariy tamoyillari, zamonaviy lingvistik uslub va yondashuvlardan foydalanish, mavjud tadqiqotlardagi nazariy qarashlarga munosabat bildirish, tahlil qilingan keng hajmdagi dalilga asoslangan materiallar va amalga oshirilgan ishlarining nazariy qoidalariga mosligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvopersonologiya ning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishi, muallif va qahramon diskursiv shaxsining mantiqiy-ijodiy faoliyati natijasi sifatida badiiy olam manzarasi tasvirini tadqiq etish hamda o'zbek va ingliz badiiy matnidagi diskursiv shaxsga oid yangi nazariyalarni shakllantirishga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning materiallari umumiy va qiyosiy tilshunoslik tizimida, oliy o'quv yurtlarida diskurs tahlili, matn lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik fanlarida, shuningdek, olingan natijalar tilshunoslikning diskurs tahlili, kognitologiya bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish hamda maxsus kurslarni tashkil qilish jarayonida qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muallifning diskursiv shaxsini namoyon etuvchi lingvistik birliklarning semantik-uslubiy, pragmatik, kognitiv va madaniy talqini bo'yicha olingan natijalar asosida:

muallif diskursiv shaxsiga xos kognitiv tamoyillarning nazariy asoslari, muallif diskursiv shaxsining tilshunoslik va adabiyotshunoslik, shuningdek, uslubiyatda o'rganilishi tahlili, ingliz va o'zbek badiiy matnlarida muallif diskursiv shaxsiga xos lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlarga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2019-2023-yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 17-maydagi №196/1-son ma'lumotnomasi). Natijada jamiyat taraqqiyoti uchun ham, hozirgi tilshunoslik uchun ham g'oyat muhim va global masala hisoblanuvchi diskursiv shaxs konsepsiyasi, jumladan, antropotsentrik paradigmaga xos tamoyillar, ingliz va o'zbek badiiy matnlarining lingvistik hamda kognitiv tahliliga aloqador ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga erishilgan;

ingliz va o'zbek badiiy matnlarida muallif diskursiv shaxsining asosiy ko'p vazifali lingvistik belgilarini namoyon etuvchi sarlavhalar va epigraflar; badiiy

portret; dialog va monolog; o'zini bo'lmagan ko'chirma gaplarga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2019-2023-yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 17-maydagi №196/1-son ma'lumotnomasi). Natijada muallif diskursiv shaxsining ko'p vazifali lingvistik belgilarini namoyon etuvchi sarlavhalar va epigraflar, badiiy portret, dialog va monolog, o'zini bo'lmagan ko'chirma gaplarga oid ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga xizmat qilgan;

diskursiv shaxsning kognitiv-madaniy fenomenini til vositalari individual-mualliflik modifikatsiyasi va bilim strukturalari integratsiyasi asosida badiiy matnda axborotni lisoniy hamda kognitiv ifodalashning o'zaro ta'siriga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi ko'p qirrali kognitiv-uslubiy hosila, majmuaviy mexanizm sifatida asoslash, ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda aks ettirilgan konseptual ahamiyatga ega ma'lumotlarni ochib berishga qaratilgan muallif diskursiv shaxsi, xossatan, kognitiv-madaniy hosila sifatidagi murakkab mexanizmning chog'ishtirma tahliliga oid ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan "English Access Microscholarship Program (Ingliz tiliga oid Mikro stipendiya Dasturi)" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 20-sentabrdagi №1920/02-son ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi tilshunoslik va tilni antropotsentrik paradigma jihatidan tahlil qilish, oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida chog'ishtirma tilshunoslik, uslubiyat fanlarini o'qitish, shu fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalar va dasturlar tuzish, ingliz tili amaliy mashg'ulotlari, ingliz va o'zbek xalqlari madaniy aloqalari tarixiga oid ilmiy izlanishlar olib borishga taalluqli tavsiyalarni shakllantirishga asos bo'lgan;

hozirgi tilshunoslikda antropotsentrik qarash rivojlanishining bugungi bosqichlari, diskursiv shaxs tushunchasi va strukturalari, badiiy matnda fikr ifodalashning kognitiv asoslari, shuningdek, badiiy matnda muallif diskursiv shaxsiga xos kognitiv-madaniy xususiyatlarni aks ettirishda tasviriy ifodalardan foydalanishning ahamiyati kabi ilmiy ma'lumotlardan "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasi tarkibidagi "Foreign languages" telekanalining "Good morning, Uzbekistan" ko'rsatuvi dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2022-yil 18-oktabrdagi №02-05-1757-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek badiiy matnlari asosida universal va unikal jihatlar tahlil etilgan misollardan foydalanish ushbu dasturning boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4ta, jumladan, 2ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan

ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika, 2 ta xorijiy hamda 2ta mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, muammoning o'rganilish darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda foydalanilgan metodlar ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hozirgi tilshunoslik doirasida kognitiv tadqiqotlar rivoji”** deb nomlangan bo'lib, 3 paragrafdan iborat. Unda tilshunoslik rivojining bugungi bosqichlari antropotsentrik paradigma nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan, badiiy matnda ma'lumot ifodalashning kognitiv tamoyillariga alohida e'tibor berilgan, shuningdek, diskursiv shaxs tushunchasi, strukturasi va diskursiv shaxs rivojlanishining istiqbolli tendensiyalari tanqidiy tahlil qilingan.

Bobning 1.1-paragrafi *“Tilshunoslik taraqqiyotining zamonaviy bosqichi: antropotsentrik paradigma”* deb nomlangan bo'lib, unda hozirgi tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi, ushbu paradigma natijasida yuzaga kelgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlari xususida to'xtalib o'tilgan. Xususan, bugungi tadqiqotlar doirasida eng dolzarb muammolardan biri sanalmish ilmiy paradigmalar masalasi bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar tilshunoslik rivojida paradigmalarni o'rganishga oid yangiliklar qilishga asosiy diqqatni qaratmoqdalar. Shuningdek, turli mutaxassislar tomonidan terminologik o'zgarishlar taklif qilinib hozirgi tilshunoslik doirasida ilmiy paradigma muammosi keng muhokama qilingan.

Ma'lumki, qiyosiy-tarixiy metodga asoslangan qiyosiy-tarixiy paradigma tilshunoslikda asosiy ilmiy paradigma hisoblanadi. Mazkur paradigma doirasida tilshunoslarning bosh diqqat-e'tibori so'zga qaratiladi. Bugungi kunda til ushbu ilmiy paradigma doirasida o'rganilmoqda, jumladan, darsliklar, grammatikaga oid akademik ishlanmalar, axborot nashrlari tizimli-strukturaviy paradigma bo'yicha ishlab chiqilgan metodologiyaga asoslanadi.

Tilshunoslar antropotsentrik paradigmaning yetakchi maqomiga asosiy e'tiborni qaratgan holda, hozirgi tilshunoslikning antropotsentrizm, ekspansionizm, funksionalizm, eksplanatorlik kabi uslubiy tamoyillari borligini ta'kidlashadi. Antropotsentrizm ta'sirida alohida til tizimlari, til sathlari va til birliklari tavsifiga oid yangicha qarashlar shakllandi. Lingvistik tadqiqotlarga inson omili kirib kelishi bilan hozirgi ilm-fan tamoyillari qatorida, tilga funksional yondashuv (neofunksionalizm tamoyili) voqelana boshladi. Antropotsentrizm va funksionalizm hozirgi tilshunoslikning yetakchi ilmiy tamoyili sifatida lingvistikaning keyingi rivojini belgilab beradi hamda ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari haqidagi qarashlarni

kengaytirishga hissa qo'shadi. Antropotsentrizm hozirgi tilshunoslikning ajralmas bo'lagi bo'lib, u lisoniy shaxs tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Nutqqa ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan tadqiqotlarning aksariyatida shaxsga e'tibor qaratiladi. Tilga antropotsentrik yondashuv asosida va tildagi inson omiliga alohida e'tibor qaratilishi natijasida lisoniy shaxsni o'rganuvchi fanlar soni ortdi.

Bobning 1.2.-paragrafi *"Badiiy matnda ma'lumot ifodalashning kognitiv tamoyillari"* deb nomlanib, muayyan axborotni aks ettirishda muhim sanaluvchi tamoyillarning tasnifi va izohi, ushbu masala yuzasidan o'zbek va g'arb tilshunoslarining tadqiqotlari tahlil etildi. Badiiy matnni shakllantirish ma'lum me'yorlarga amal qilishni taqozo etib, ushbu jarayonda eng muhim yondashuvlar sifatida kommunikativ va kognitiv yondashuvlarni qayd etish mumkin. Matnga bir tomonlama, ya'ni kommunikativ yoki faqat kognitiv yondashuv yetarli emas. Buni shartli ravishda tilshunoslikda tildan foydalanish jarayonini tahlil qilishni antropotsentrik paradigma vositasida amalga oshirish tarzida izohlash mumkin.

Hozirgi tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning paydo bo'lishi hamda inson tafakkuri, qiziqishlari singari jihatlarining til orqali verballashuvi bir-biriga bog'liq jarayonlar sanaladi. Shu sababli nutqni tahlil qilishda uning ikki vazifasi, xususan, muloqot va kognitivlik, ya'ni aqliy xususiyatlariga diqqat qaratish talab etiladi. Bu haqda E.S. Kubryakova quyidagicha fikr bildirgan: "Har qanday til hodisasi kognitiv hamda kommunikativ tamoyillarga ega bo'lgandagina yetarlicha asoslangan hisoblanadi"⁹.

Badiiy matn turli-tuman matnlar va badiiy faoliyatning uyg'unlashuvi natijasida yaraladigan hamda bir qator badiiy obrazlar jamlanmasidan iborat tuzilma sifatida ta'riflanishi o'rinli. Kognitiv birliklar va tushunchalardan (concepts) foydalanish badiiy matnga kognitiv yondashuvning muhim xususiyatlaridan biridir, ya'ni madaniy ma'lumotlarni o'zida jamlagan komponentlarni o'zlashtirmasdan turib, uning muqobilini aniqlash juda murakkab jarajondir. Darvoqe, sifatli badiiy tarjimani amalga oshirishda shu tildan foydalanuvchi mamlakatning an'analari, urf-odatlar, adabiyoti, madaniyati, stereotiplari va tarixi to'g'risida avvaldan shakllangan bilimlarga asoslaniladi. Muallif va kitobxon o'rtasida amalga oshiriluvchi hamda asar qahramonlari tasvirlangan muloqot badiiy tushunchalar yordamida yuzaga chiqadi.

Bobning *"Diskursiv shaxs: tushuncha, struktura, rivojlanishning istiqbolli tendensiyalari"* deb nomlangan 1.3.-paragrafida diskursiv shaxs tushunchasining vujudga kelishi, uning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr-mulohazalar tahlil qilingan. Lisoniy shaxs tushunchasi insonda nutq qobiliyati rivojlangan hamda tafakkur mavjud bo'lgan davrda shakllanadigan psixolingvistik kategoriya bo'lib, yetuklik davrigacha bir qancha bosqichlarni boshdan kechiradi. Lisoniy shaxs tushunchasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish zarur. Lisoniy shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar qatorida shaxsning yoshi va jinsi alohida ajralib turadi. Chunki jins xususiyatlari so'zlovchining nutq qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Lisoniy shaxs rivojlanishida yosh xususiyatlari ham alohida e'tibor talab qiluvchi omillardandir. Ta'kidlash joizki, lisoniy shaxsning shakllanishiga so'zlovchi yoki badiiy asardagi muallifning dunyoqarashi, nutqni

⁹ Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 57.

ifodalashdan ko'zlangan maqsad hamda vazifalar, shaxsiyat, ijtimoiy-madaniy, psixologik holat va boshqa ekstralingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Ammo, odatda, lisoniy shaxsning rivojlanishi va takomillashuviga ta'sir ko'rsatuvchi lingvistik omillarga alohida ahamiyat beriladi.

Ma'lumki, lisoniy shaxs tushunchasining mohiyati nutqiy matnlarni yaratuvchi hamda qabul qiluvchi shaxsning xarakter-xususiyatlari hamda qobiliyatlari yig'indisini anglatadi. Diskursiv shaxs mohiyati va tipologiyasi, tuzilishi va lingvistik jihatdan murakkab ko'p bosqichli tuzilma hisoblanib, badiiy matnda nafaqat muallif, balki qahramon shaxsiyatining ichki dunyosini ham ochib berishga xizmat qiladi. Tuzilish hamda lingvistik murakkablik, haqiqatni aniq va teranroq ifodalash kabi jihatlariga ko'ra diskursiv shaxs hamda lisoniy shaxs tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Diskursiv shaxs o'zida kognitiv, kommunikativ-pragmatik, semantik-uslubiy, madaniy va psixologik jihatlarni mujassam etadi. Kognitiv jihat muallif va qahramonning tafakkuri, tasavvuri hamda dunyoqarashini namoyon etuvchi xususiyat bo'lsa, uning xulq-atvor jihatini belgilovchi ijtimoiy va kasbiy mavqeyi, maqsadlari, motivlari, qiziqishlari va munosabati pragmatik jihat orqali verballashadi. Shu bilan bir qatorda, badiiy matnda diskursiv shaxs intensionallik va kontekstual aniqlik vositasida ham ifodalanishi mumkin.

Diskursiv shaxs insonning diskursni yaratish va uni qabul qilishni taqozo etuvchi qobiliyat va ta'riflari yig'indisi sifatida tushuniladi. Muallif va personaj diskursiv shaxslari quyidagicha farqlanadi¹⁰:

- a) semantik-uslubiy til murakkabligi darajasiga ko'ra;
- b) kommunikativ-pragmatik omillarning tilda namoyon bo'lish xarakteriga ko'ra;
- d) intellektual xususiyatni aks ettirish darajasiga ko'ra;
- e) personajning muayyan ruhiy tipni namoyon etuvchi psixologik, individual xususiyatlarining aks etishiga ko'ra.

Ko'plab tadqiqotlarda muallif diskursiv shaxsi o'zida muayyan kommunikativ, madaniy-tarixiy, milliy, ijtimoiy va individual xususiyatlarni aks ettiruvchi shaxsiyat sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni diskursiv shaxs lingvistik ijodkorlik xususiyati mujassamlashgan ijodiy shaxs sifatida ko'zga tashlanadi. Bu borada muallifga xos bo'lgan modallik hamda munosabatlarni o'zida aks ettirgan konseptual olam manzarasini ochib berishga asosiy e'tibor qaratiladi.

“Ingliz va o'zbek badiiy matnida muallif individual olam manzarasining muallif modalligi bilan mutanosibligi” deb nomlangan ikkinchi bob 3 paragrafdan tashkil topgan. Ushbu bobda muallif modalligini aks ettirishda muhim sanaluvchi tasviriy ifodalar, shuningdek, muallif diskursiv shaxsining konseptual olam manzarasi in'ikosida sarlavha va epigrafning ahamiyati ochib berilgan. Tasviriy ifodalarning qo'llanilishiga xos xususiyatlar va ularning tahliliga bag'ishlangan ikkinchi bobida portretning tuzilishi hamda semantik jihatlariga ko'ra tasniflanishi xususida so'z yuritildi.


Bobning *“Badiiy tasvir vositalari muallif subyektiv munosabatining in'ikosi sifatida”* deb nomlanuvchi 2.1.-paragrafida muallifning modal munosabati, nuqtayi

¹⁰ Нормуродова Н.З. Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Автореф. ... д-ра филол. наук.. – Ташкент, 2020. – С.18.

nazari, qiziqishlari kabi pragmatik xususiyatlarni aks ettirishga xizmat qiluvchi tasviriyl ifodalarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Xususan, badiiy portretning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ikki darajali, ya'ni qahramonlarning tashqi xususiyatlarini (surati) hamda ichki ruhiy olami (siyrati)ni aks ettiruvchi darajani namoyon etadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy matn tahlilida muhim sanaluvchi badiiy portret qahramonlarning tashqi ko'rinishi, tana tuzilishi, harakatlari, xarakter-xususiyatlari qatori ichki olami haqida ham muayyan tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga oid tahlillar va xulosa quyidagi chizmada aks ettirildi:

1-chizma.

Diskursiv shaxsni ifodalovchi badiiy portret turlari



Portret, dastlab, badiiy matnda qanday yo'sinda ifodalanishiga ko'ra tasniflanib, asarning bosh qahramonlari tasviri matnda izchil aks ettirilganligi sababli yoyiq portret tarzida (*Irg'alining qizlari zuvalasi pishiq bo'ladi. Kiymagani yettinchi kalish kiyadi! Barining beli baquvvat, bo'limli bo'ladi. Irg'alining qizlarini quchoqlasa, qo'yin to'ladi! Irg'alining qizlari ko'rgan farzand-da alpomishkelbat bo'ladi*), epizodik obrazlar tasvirini yaratish uchun esa qisqa, odatda, bir martalik tasvir uslubidan foydalanilgani bois yig'iq tur (*so sincere, so devoted, and so deeply in love*) sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, mazmuniga ko'ra statik va dinamik portretga ajratilib, tasviri chizilgan qahramonlarning xatti-harakatlari, ish jarayoni, sarguzashtlari dinamik portret, turg'un holati, o'y-xayollari, xarakter-xususiyatlari kabilar statik portret yordamida namoyon

bo'ladi. Portret ilgari surish tamoyillaridan biri sifatida badiiy matnda muhim ahamiyatga molik bo'lib, uslubiy markerlanganlik xususiyatiga ega sanaladi.

Ushbu bobning 2.2.-paragrafi "*Muallif diskursiv shaxsiga xos konseptual olam manzarasining sarlavhada namoyon bo'lishi*" tarzida nomlangan. Unda badiiy matnda muallif individual olam manzarasi bilan bevosita bog'liq jihatlarning namoyon bo'lishiga xizmat qiluvchi sarlavha hamda epigrafning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Sarlavhani tavsiflash borasida turli qarashlar mavjud bo'lib, olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Jumladan, M.N.Kojina uni "nutqning ichki mazmuniga aloqador timsol yoki ramz" deya ta'riflaydi¹¹, M.M.Kopelenko esa "taqdim qilingan material vositasida maqsad va mohiyat ochib beriluvchi" tezis sifatida izohlaydi. N.A.Zmiyevskaya sarlavha matn strukturasiga aloqador element¹², degan yondashuvni ilgari sursa, N.Z.Normurodova tomonidan esa sarlavha kontent-konseptual ma'lumotning maksimal darajada qisqartirilgan yashirin varianti sifatida izohlanadi¹³.

Jumladan, 1) sarlavha: a) uslubiy markerlanganlik (*Ikki karra ikki besh*); b) ramziylik (*Birthmark*); c) implisitlik (lokal – *To build a fire*, ichki – *Muzqaymoq*, chuqur – *Qorako'z majnun*); 2) epigraf: a) binarlik–bir kontekstda mazmun jihatdan qarama-qarshi tushunchalarning birgalikda aks ettirilishi; b) qayta talqin qilish (badiiy matndagi freymlarni o'zgartirish va epigrafni muqobil freymda aks ettirishni anglatadi¹⁴) kabi jihatlarga ega bo'lishi mumkin. Ta'kidlash joizki, sarlavha badiiy asarning muhim unsurlaridan biri bo'lib, u badiiy matnga aloqador shunchaki ramz yoki belgi emas, balki matnning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifasi bilan uzviy aloqador bo'lgan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois badiiy asar yoki gazeta-jurnal maqolalariga kitobxonning e'tiborini jalb eta oluvchi o'ziga xos sarlavha tanlanishi lozim.

Bobning "*Epigraf muallif diskursiv shaxsini aks ettiruvchi vosita sifatida*" deb nomlanuvchi 2.3.-paragrafida epigraf muallif konseptual olam manzarasi aks etishida muhim o'ringa ega sanaluvchi omillardan biri sifatida tahlil qilingan. Chunonchi, badiiy matnning kognitiv tahlillari shuni ko'rsatdiki, ingliz adabiyotida ham Mario Puzo "*The Godfather*" ("Cho'qintirgan ota") asariga Balzakning "*Behind every great fortune, there is a crime*" jumlasini epigraf sifatida keltirishi natijasida qayta talqin qilish (reframing) holati yuzaga kelganiga guvoh bo'ldik. Boshqacha aytganda, muallif jumla mazmunini qayta kashf etishi natijasida unga «yangi hayot» baxsh etadi. Xususan, Balzak ko'zda tutilgan mazmunni estetik jihatdan boyitish maqsadida metafora (*a crime*) qo'llagan bo'lsa-da, aslida, qiyinchilik, mashaqqatga ishora qilishni nazarda tutgan¹⁵, ya'ni ushbu jumla: "Har qanday muvaffaqiyatning ortida mashaqqat yotadi" [nisbiy tarjima]

¹¹ Кожина М.Н. О диалогичности письменной научной речи: Учеб. пособие по спецкурсу / Перм. гос. ун-т им. А.М.Горького. – Пермь: ПГУ, 1986. – 191 с.

¹² Змиевская Н.А. Лингвостилистические особенности дистантного повтора и его роль в организации текста (на материале англ. и амер. прозы). А втореф. дисс. ... канд. филол. наук: – М., 1978. – 21 с.

¹³ Normurodova N.Z. Ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning verbal eksplikatsiyasi. Filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 17.

¹⁴ Fillmore Charles J. and Baker Collin F. Frame semantics for text understanding in Dan Moldovan, Wim Peters, Sanda Harabagiu, Louise Guthrie and Yorick Witès (eds.) WordNet and Other Lexical Resources. – Pittsburgh: Association for Computational Linguistics, 2001. – P. 59–64; Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии выдвижения в художественном тексте. – Ташкент, 2019. – 464 с.

¹⁵ [https://ns.ycombinator.com/item?id=16623203#:~:text=As%20in%20the%20\(translated\)%20version,is%20not%20without%20any%20merits.](https://ns.ycombinator.com/item?id=16623203#:~:text=As%20in%20the%20(translated)%20version,is%20not%20without%20any%20merits.)

mazmunini ifodalaydi. Biroq amerikalik yozuvchi ushbu jumlaning qayta talqin qilgan holda haqiqatda jinoiy guruhlar, jinoyatchilar olamida yuz beradigan voqealar aks ettirilgan asar (The Godfather) uchun epigrafi sifatida tanlaydi. Tahlillarimiz orqali muallif tomonidan “crime” soʻzining maʼnosini toraytirgan holda metafora sifatida emas, balki oʻz maʼnosida talqin qilinishi natijasida refreyming yuzaga kelganini kuzatdik. Ushbu hodisa muallifning individual uslubini namoyon etish bilan birga matnning estetik jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Shuningdek, oʻzbek adabiyotida Tohir Malikning “Shaytanat” romanining birinchi kitobi uchun epigrafi sifatida tanlangan Ahmad Yassaviyning quyidagi hikmatida ham qayta talqin etish holati kuzatilgan:

“Shayton gʻolib, jon berarda shoshdim mano”.

Maʼlumki, yassaviya tariqati asoschisi hisoblanuvchi Ahmad Yassaviy haqni sevish, nafsni tiya bilish, insonlarni illatlar va qabohatdan xoli boʻlishga daʼvat etuvchi¹⁶ pand-nasihat ruhida hikmatlari orqali komil inson darajasiga yetish, kamolot yoʻllarini izlashga undagan. Yuqoridagi satrda ham umri davomida bilib-bilmay qilingan gunohlariga tavba qilish, pushaymonlik hissi yaqqol namoyon boʻlib turgan misraning Tohir Malik tomonidan tavba qilishni xohlamagan qahramonga ishora sifatida epigrafi sifatida tanlanishi ham bejiz emas. Zero, yuqoridagi misra mazmunini kengroq talqin qilgan holda epigrafi sifatida foydalanib, kontekstual antiteza tarzida qoʻllangani refreymni yuzaga keltirgan.

Dissertatsiyaning **“Muallif va personaj diskursiv shaxsining kognitiv voqelanishi”** deb nomlanuvchi uchinchi bobi 3 paragrafdan iborat. Mazkur bob muallif dunyosining individual tasvirini yaratish vositasi sifatida badiiy dialog va monologning oʻrni, oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gaplarning kognitiv aspektiga bagʻishlangan.

Bobning *“Badiiy dialog muallif diskursiv shaxsi xususiyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatida”* deb nomlanuvchi 3.1.-paragrafida muallifga xos individual olam manzarasini aks ettiruvchi dialogning oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek, badiiy matn vazifalarining muhim til birliklari sanaluvchi dialog va monologda namoyon boʻlishiga oid qarashlar ingliz va oʻzbek badiiy matnlaridan olingan misollar tahlili yordamida ochib berilgan. Xususan, badiiy matn dialog vositasida turli vazifalarni amalga oshirishi mumkin. M.M.Baxtinning fikriga koʻra, badiiy matnning birlamchi (asosiy) vazifasi kommunikativlik hisoblansa¹⁷, D.U.Ashurova badiiy matnning asosiy vazifalari sifatida kommunikativlikdan tashqari kognitivlik, estetiklik va interpretativlik (talqin) kabilarni sanab oʻtadi¹⁸. Shuningdek, D.U.Ashurova badiiy matnning ikkilamchi vazifalari haqida toʻxtalib, ularni informativ, uslubiy, pragmatik, ijtimoiy hamda madaniy kabi turlarga ajratadi. Ishimizda dialog va monologning badiiy matndagi oʻziga xosliklari tadqiqi aynan D.U.Ashurova tomonidan amalga oshirilgan badiiy matn vazifalari tasnifiga asoslanib, dialog, monolog, oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gaplarda birlamchi - asosiy, ikkilamchi yoki yondosh, shuningdek, har ikkala turdagi vazifalarni bir paytda, yaʼni ikki

¹⁶Рустамов Э. Аҳмад Яссавий ҳикматларида тарих ва ҳаёт садоси // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 1972. № 4 – В. 4–5.


¹⁷ Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках. Философский анализ // Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С. 281–307.

¹⁸ Ашурова Д.У. Функциональная модель художественного текста // Нижневартковский филологический вестник. – 2022. Т. 7. №2. – С. 65–78. doi: 10.36906/2500-1795/22-2/06

yoqlama vazifalarni amalga oshirishi mumkin, tarzidagi xulosalarimizni quyidagi chizmada aks ettirdik:

2-chizma.

Vazifalar klassifikatsiyasi



Bobning “Muallifga xos olam manzarasi badiiy monologda aks etishi” deb nomlanuvchi 3.2.-paragrafida muhim til birliklaridan hisoblanuvchi monologning badiiy matndagi vazifalari haqida so‘z borgan.

Monolog va dialog qurilish jihatdan murakkab tuzilma sanalib, monolog, asosan, badiiy matnda e’tiborni tortish bilan bir qatorda, muallif diskursiv shaxsiga oid pozitsiyani aks ettirish, shuningdek, qahramonlarning hissiyotlari va ruhiy holatini namoyon etish maqsadida qo‘llanadi, ko‘pincha estetik va kognitiv vazifalarni bajaradi. Dialogning asosiy vazifasi esa, kommunikativ, pragmatik va interpretativ sanalib, odatda, personajlarning xulq-atvorini ochib berishga xizmat qiladi hamda muallif diskursiv shaxsiga xos individual olam manzarasini aks ettiradi. Badiiy matndagi dialog ishtirokchilari bo‘lgan personajlar muloqoti orqali ularning e’tiqodlari, qadriyatlar va kechinmalari haqida tasavvur hosil qilish va ushbu holat muallifning lisoniy olam manzarasiga mos kelishi yoki undan farq qilishini aniqlash imkonini beradi. Darhaqiqat, muallif tomonidan muayyan ijtimoiy masalani tahlil qilish maqsadida turli dunyoqarash va mafkuraga ega qahramonlar o‘rtasida dialog yaratilishi, pirovardida esa, turli fikrlarni taqdim etish orqali muallif o‘z uslubini ifodalashi mumkin. Bunda muallif ma’lum dalillar yoki qarashlarni zimdan ma’qullash yoxud tanqid qilish orqali vaziyatga nisbatan

o'z munosabatini ham bildiradi. Badiiy matndagi monolog muallif yoki qahramonning ichki fikrlash jarayoni hisoblanib, uning ongini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Monologlar qahramon ichki dunyosining in'ikosi bo'lib xizmat qilish bilan birga, ko'pincha, muallifning modalligini ham aks ettiradi. Monologga xos yana bir muhim jihat shundaki, u muallif uchun o'z fikrlari va e'tiqodlarini yanada ravonroq ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, konseptual dunyo manzarasini aks ettirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni unutmaslik joizki, monolog uslubiy jihatdan markerlanganligi, emotsional-bo'yoqdorlik xususiyatiga ega jumlar, til vositalari dialogga nisbatan ko'proq ishlatilganligi bilan ajralib turadi va alohida e'tiborni talab etadi.

Monologda qo'llangan til vositalari turli mazmunni aks ettirishga xizmat qilishi mumkin. Xususan jim qolish: a) muallif yoki qahramonning og'ir ruhiy kayfiyatini ifodalaydi: *Ko'p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi!*; b) kuchli hayajon ta'sirida fikrni davom ettirish imkonsiz bo'lganda: *O'zimiz ketsak-ku, go'rga-ya. O'zimiz bilan... Buni rais biladimi?..*; d) yuz beradigan voqeani oldindan anglashga kitobxonni ruhan tayyorlashda: *Xiyol bo'lmasa, xalqning o'zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin, dedik!*; e) fikrning davomi kitobxonga tushunarli bo'lganda: *Shunday keta bersak, hademay... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz!*; f) hamma fikrni batafsil aytishning imkoni bo'lmaganda: *Bo'ri polvon o'yladi-o'yladi... O'ylab o'yiga yetdi...* g) fikrning keyingi rivojini anglab olish kitobxonga havola qilinganda: *Tag'in nimalardir... nimalardir yo'qolib boryapti... (Tog'ay Murod)*

Badiiy matndagi monolog tahlillari shuni ko'rsatdiki, A.Millerning "The Crucible" asari qahramonining monologi yolg'izlikdagi muloqot shaklida bo'lib, ushbu monolog ikki yoqlama vazifalarga mansub kognitiv-uslubiy vazifaning namoyon etilishiga yaqqol misol bo'ladi. Ushbu parchada qahramonning ruhiy portretini yaratish vazifasi unga xos fikrlar, boshqa personajga nisbatan ruhiy-emotsional munosabati shaklida aks etgan bo'lib, bu muayyan badiiy elementlar orqali namoyon bo'ladi. Xususan, qahramon tilidagi nutqiy ifodalar undagi shubhani (*There be a thousand names, why does she call mine? There be a certain danger in calling such a name*) namoyon etishdan tashqari, qat'iylikni (*I am no Goody Good that sleeps in ditches, nor Osburn drunk and half-witted*) ham ifodalashga xizmat qilgan. Shuni qayd etish joizki, ushbu parchada bir qancha uslubiy vositalarning uyushib kelishi natijasida uslubiy konvergentlik ham yuzaga kelgan. Xossatan, muallif qarama-qarshi mazmunga ega bo'lgan so'zlarni qo'llash bilan *antiteza* (*Spoke or silent*), ma'noni kuchaytirib-ta'kidlab ko'rsatish va shu orqali bilvosita kitobxonga murojaat qilish, uning e'tiborini zimdan jalb etish maqsadida *mubolag'a* (*a thousand names*) kabi stilistik vositalardan unumli foydalangan. Bundan tashqari, ikki inkorni qo'llash orqali *diateza* (*no Goody Good, nor Osburn drunk and half-witted*) hamda muallif tomonidan badiiy matnda shartli hosil qilingan *metaforik epitet* (*Goody Good*), shuningdek, yangi so'z yasalişini (*Goody - occasionalism*) ham kuzatish mumkin. Bu usul orqali muallifning individual olam manzarasini aks ettirish vazifasi namoyon bo'lganini anglash mumkin. Shuningdek, omonimlarni qo'llash orqali (*you will blush, and I think she sees another meaning in that blush*) so'z o'yinini yuzaga keltirib, badiiy matnning yanada jozibali, rang-barang bo'lishiga xizmat qilish bilan birga e'tiborni jalb etish vazifasi namoyon bo'lgan. Tasvirlanayotgan muhitga

